



Ezopning “Burgut bilan Tulki” masalini o‘qing va qahramonlariga ta’rif bering.



## Burgut bilan Tulki

Burgut bilan Tulki do'st tutinishdi va qo'shni bo'lib yashashga ahd qilishdi. Burgut azim tup daraxtning uchiga uya qurdi. Tulki esa shu daraxt tagida, butalar orasida bolaladi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, Tulki ovga chiqdi.

Shunda o'z polaponlarini nima bilan boqishni bilmay, och qolib o'tirgan Burgut pastga uchib tushib, butalar orasida yotgan tulkivachchalarni changaliga ilib, uyasiga olib chiqdi-da, ularni o'z polaponlari bilan baham ko'rди.

Mana, Tulki iniga qaytib keldi. Keldi-yu, bir qarashda ne hol yuz bergenini fahmladi. U juda qattiq qayg'urdi – nafaqat bolalarining nobud bo'lganidan, balki qotildan qasos ololmasligidan ham ich-etini yeb, iztirob chekdi. Chunki yerdagi hayvon osmondagи qushni tuta olmasligini u yaxshi bilar edi. Nochor hayvon nima ham qila olardi? G'animini faqat uzoqdan turib qarg'ashgagina kuchi yetardi uning. Biroq oradan ko'p ham vaqt o'tmay, Burgut do'stlik ahdiga xiyonat qilgani uchun jazosini oldi. Bir odam dalada echki so'ygan ekan. Buni ko'rgan Burgut



uchib kelibdi-da, laqqa cho'g' bo'lib yonayotgan kalla-pochani o'g'irlab uyasiga olib chiqib ketdi. Xuddi shu payt birdan qattiq shamol turib, qurigan shox-shabbalardan qurilgan uya boyagi kalla-pochalar orasidagi cho'g'lardan "pov" etib alanga oldi. Hali uchishni o'rganmagan temirqanot polaponlar kabob bo'lib yerga tushdi; shunda Tulki yugurib kelib, Burgutning ko'zi oldida uning polaponlarini yamlamay yutib yubordi.

Masaldan hissa shuki, do'stlikka xiyonat qilgan odam dili og'rigan do'stining qasosidan qutulib qolgan taqdirda ham, Yaratganning qahridan qochib qutula olmagay.



**Ikkita masal mazmunini solishtiring.  
Ularning o'xshash va farqli tomonlarini ayting.**



*Masal – axloqiy mazmunni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan kichik badiiy asardir. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar – hayvontar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan esa oxirida qissadan hissa, ya'ni ibratli xulosa chiqariladi.*



**Masalni rollarga bo'lib, ifodalni o'qing.  
Masalda ifodalangan fe'l-atvorga ega insonlar hayotidan hikoya tuzing.**